

**O`ZBEKISTONDA POLIETILEN QOPCHA (PAKET) LARDAN FOYDALANISH MADANIYATI**  
**CULTURE OF USING POLYETHYLENE BAGS (PACKAGES) IN UZBEKISTAN**

**S.A.Toshpulatova**

- PhD talaba.

**A.D. Xodiyeva**

- III bosqich talaba O`zbekiston Milliy universiteti, O`zbekiston

**Annotation:** *The article shows that, the ecological attitude and ecological culture are analyzed based on the results of a special tests and anonymous questionnaire.*

**Key words:** *Polyethylene (plastic) bag, ecological destruction, ecological culture, ecological attitude, ecological responsibility, ecological knowledge, environmental activism, nature conservation.*

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakatimiz aholisining kundalik hayotida tez-tez foydalanadigan polietilendan yasalgan qopcha (poket) larga bo`lgan ekologik munosabat va ekologik madaniyat maxsus so`rovnoma natijalari asosida tahlil qilingan. So`rovnoma to`rt kun davomida «Telegram» messenjeri yordamida elektron shaklda olib borildi. So`rovnoma natijalariga ko`ra 851 kishi so`rovnomalarni o`qigan, ammo 300 dan ortiq kishi (35 %) so`rovnoma savollariga faol tarzda javob bergan.*


**Kalit so`zlar:** *Polietilen (plastik) paket, ekologik halokat, ekologik madaniyat, ekologik munosabat, ekologik ma`suliyat, ekologik bilim, ekologik faollik, tabiatparvarlik.*

Dunyoing ko`plab mamlakatlari singari bizning bozorlarda ham polietilen va uning mahsulotlari o`z hukmronligini o`rnatdi. Odamzod polietilen mahsulotlarisiz turmushini tasavvur etishi qiyin bo`lib qolgan. Polietilen mahsulotlari ichida paket (xalta)lar eng ko`p qo`llanilishi hech birimizga sir emas.

Polietilen poket – narsa va materiallarni tashish va saqlash uchun ishlatiladigan polietilen (polietilen plyonka) dan tayyorlangan xaltacha [1]. Dunyo bo`yicha har yili 5 trln. gacha plastik paketlardan foydalaniladi [2]. Maishiy chiqindilarning 9 % ni plastik paketlar tashkil etadi. Ularning chirishi uchun esa 400 yilgacha vaqt talab etiladi [3]. Dunyo okeani ushbu chiqindi bilan tobora ifloslanib, kelgusi avlodlar uchun hal etish murakkab bo`lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda [4]. Plastik paketlarning ayovsiz ishlatilishi oqibatida 1 million qush, 100 ming dengiz hayvonlari va juda ko`p miqdorda baliqlar nobud bo`lishdi [1,3,4]. Plastik xaltachalarning ona tabiat va uning boyliklariga keltirayotgan salbiy ta`siri natijalari haqida juda ko`p misollar keltirish mumkin, ammo insoniyat o`z oldida ko`ndalang turgan ushbu jiddiy muammoni hal qilishni orqaga surar ekan, oqibatda esa bundan ham daxshatliroq ekologik halokatlar yuzaga kelishiga zamin yaratib beradi.

Quyida odamlarimizning plastik xaltachalarga bo'lgan «ekologik madaniyati», «ekologik munosabati» va «ekologik bilimlar» ini tekshirish, tahlil qilish maqsadida olib borilgan kichik tadqiqot natijalari bayon qilinadi. Tadqiqot so'rovnoma ko'rinishida olib borildi. Buning uchun «Telegram» messenjeridan foydalanildi. Tadqiqot 4 kun davomida, anonim tarzida olib borilib, elektron so'rovnoma bilan 850 dan ortiq kishi bevosita tanishib chiqdi, shundan atigi 35 % (309 kishi) so'rovnoma savollariga javob berdi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, ya'ni so'rovnoma bilan tanishganlarning 65 % faol bo'lishni va boshqalarning plastik xaltachalarga nisbatan ekologik qarashlarini bilishni istamagan. Bu esa o'z navbatida odamlarimizning ekologik bilimlarga qiziqmasligi, ekologik faol bo'lishni istamasliklarini ko'rsatib turibdi (1-diagramma).

**1-diagramma**




*So'rovnoma o'qib belgilamaganlar (65 %) va o'qib faol ishtirok etganlar (35 %)*

So'rovnoma savollari esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Biror mahsulot xarid qilmoqchi bo'lsangiz sotuvchi taklif etgan polietilen paketdan foydalanishni rad etasizmi?
2. Biror narsa xarid qilmoqchi bo'lsangiz o'zingiz bilan matodan ishlangan sumka (xaltacha) olib yurasizmi?
3. Polietilen xaltachalarning ekologik zararini inobatga olgan holda undan foydalanmaslikni istarmidingiz?
4. Polietilen xaltachalar o'rniga qog'oz xaltalar ishlatilishini istarmidingiz?
5. Polietilen xaltachalardan ikkinchi marta foydalanasizmi?

So'rovnoma natijalari esa diagrammalarga solinib, tahlil etildi. So'rovnomaning birinchi savoli, ya'ni «Biror mahsulot xarid qilmoqchi bo'lsangiz sotuvchi taklif etgan polietilen paketdan foydalanishni rad etasizmi?» degan savoliga 310 kishi javob berib, shundan 14 % ishtirokchi - «Ha», 54 % ishtirokchi «Yo'q», 32 % ishtirokchi esa «Ba'zida» degan javobni berishgan (2-diagramma).


**2-diagramma**



Diagrammadan ko`rinib turibdiki, xaridorlarning yarmidan ko`p qismi (54 %) sotuvchi tomonidan taklif etilgan plastik xaltachalarni rad etmas ekan, bu esa ko`pchilik odamlarimiz ongida plastik pakatlardan foydalanish haqidagi ekologik bilimlarning yetishmasligi, ularni beayov va hech qanday ikkilanishsiz ishlatishlarini isbotlaydi. Plastik pakatlardan foydalanishni rad etadiganlar esa atigi 14 % ni tashkil etmoqda va bu juda achinarli holatdir. 32 % ishtirokchi esa xaridor va o`zlarining vaziyatlari, munosabatlari va boshqa sharoitlardan kelib chiqib, ba`zan plastiklarni rad etishlari, ba`zan esa qabul qilishlarini ko`rish mumkin, bu esa ularda plastiklar bilan munosabatlarda befarqlik ustun kelayotganini bildiradi. Demak, odamlarimizning ko`pchiligi plastik pakatlardan hali beri voz kechmoqchi emas, bu esa tabiatda yechimi mushkul ekologik vaziyatlarning yanada jiddiylashuviga olib keladi.

So`rovnomaning ikkinchi savoli, ya`ni «Biror narsa xarid qilmoqchi bo`lsangiz o`zingiz bilan matodan ishlangan sumka (xaltacha) olib yurasizmi?» degan savoliga 307 kishi javob berib, shundan 16 % ishtirokchi – «Ha», 69 % kishi «Yo`q», 15 % ishtirokchi «Ba`zida» degan javobni belgilashgan (3-diagramma).


**3-diagramma**



Natijalardan ko`rinib turibdiki, ishtirokchilarning 69 % «Yo`q» degan javobni belgilashgan, odamlarimizning ko`pchilik qismi tabiatga nisbatan befarq bo`layotganliklari, ekologik madaniyatning juda past darajada ekanligini yaqqol ko`rish mumkin. Matodan yasalgan xaltachalar olib yuradigan ishtirokchilar salmog`i esa juda pastdir (16 %). 15 % kishigina ba`zida o`zlari bilan ekologik xavfsiz xaltachalar olib yurishlarini bildirishgan. Ikkinchi so`rovnoma natijalari ham birinchi so`rovnomadagidek odamlarimiz ongida ekologik ma`suliyat yetishmasligini ko`rsatmoqda.

So`rovnomaning uchinchi savoli, ya`ni «Polietilen xaltachalarning ekologik zararini inobatga olgan holda undan foydalanmaslikni istarmidingiz?» degan savoliga 306 kishi javob berib, shundan 63 % ishtirokchi - «Ha», 24 % kishi «Yo`q», 13 % ishtirokchi «Ba`zida» degan javobni belgilashgan (4-diagramma).


4-diagramma



Uchinchi savoldagi natijalar bir muncha ijobiy, ya`ni odamlarimizning 63 % plastik paketlarning tabiatga nisbatan yetkazadigan zararini inobatga olib, ulardan foydalanmasliklarini bildirishgan, ammo istakning o`zi yetarli emas, chunki ekologik muammolarni o`z vaqtida hal etish uchun kechiktirib bo`lmas qarorlarni tezda qabul qilish hamda xatti-harakatga kirishish lozim. 24 % kishi esa plastiklarning zararini bilishsa ham ulardan yana foydalanishda davom etishlarini bildirishgan. 13 % kishining «Ba`zida» degan javobi esa shuncha miqdordagi kishining tabiatga nisbatan ma`suliyatsiz ekanliklarini ifodalaydi.

Anonim so`rovnomaning to`rtinchi savoli, ya`ni «Polietilen xaltachalar o`rniga qog`oz xaltalar ishlatilishini istarmidingiz?» degan savoliga 304 kishi javob berib, shundan 66 % ishtirokchi - «Ha», 25 % ishtirokchi «Yo`q», 9 % ishtirokchi esa «Ba`zida» degan javobni berishgan (5-diagramma).

5-diagramma



Anonim so`rovnomaning to`rtinchi savolni uchinchi savolning bevosita mantiqiy davomi sifatida ko`rishimiz mumkin, shu sababli ham ikki savolning natijalari bir-biriga yaqin. Qog`oz sanoati bizda rivojlanmagan, chunki qog`oz «beruvchi» daraxtlar bizlarda o`smaydi, shuni inobatga olgan holda qog`ozdan maxsus xaltachalar tayyorlash qimmat texnologiya va xomashyoni talab etishiga qaramay, uning ekologiya uchun ancha xavfsiz ekanligi hammaga ayon.


Qog`ozning o`rnini bosuvchi alternativ organik mahsulotlardan xaltachalar tayyorlash olimlarimiz oldida turgan jiddiy masaladir. 25 % ishtirokchi esa qandaydir sabablarga ko`ra qog`oz xaltachalardan foydalanish istagini rad etgan. Bunday xohish bildiruvchilar salmog`i kam bo`lsa-da, ammo ushbu ko`rsatgich ham tabiatga jiddiy xavf tug`ulishiga yetarlicha

sabab bo`ladi. Eng kam ulush (9 %) ga ega kishilar ba`zida qog`oz xaltachalardan foydalanish istagini bildirganlar.

To`rtinchi savolning natijalariga qarab shuni xulosa qilish mumkinki, ya`ni odamlarimizning ko`pchiligi polietilen paketlar o`rnini bosuvchi organik bo`lgan ancha xavfsiz xaltachalardan ommaviy tarzda foydalanishga tayyorlar.

Anonim so`rovnomaning beshinchi savoli, ya`ni «Polietilen xaltachalardan ikkinchi marta foydalanasizmi?» degan savoliga 319 kishi javob berib, shundan 58 % ishtirokchi - «Ha», 24 % ishtirokchi «Yo`q», 18 % ishtirokchi esa «Ba`zida» degan javobni berishgan (6-diagramma).

6-diagramma



So`rovnomaning beshinchi savol natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ishtirokchilarning qariyb anchagina qismi (58 %) plastik xaltachalardan ikkinchi marta foydalanishlari ijobiy natijadir. Bu esa o`z navbatida ularga bo`ladigan talabni bir muncha kamaytiradi. 24 % kishi ikkinchi marta foydalanmasliklarini va 18 % kishi esa ba`zida ulardan ikkinchi bor foydalanishlarini bildirishgan.

Beshinchi savolga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ya`ni plastik paketlardan turmushimizda ikkinchi bor foydalanish iqtisodiy sarf-harajatlarni kamaytirish bilan birga tabiatga bo`layotgan zararni bir oz bo`lsada yumshatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. <https://www.theworldcounts.com/>
3. <https://ecoportal.info/>
4. <https://zen.yandex.ru/>